

KOREYS TILINI O‘QITISHDA MADANIY SHOK FENOMENINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

ПУТИ СНИЖЕНИЯ ФЕНОМЕНА КУЛЬТУРНОГО ШОКА ПРИ ОБУЧЕНИИ КОРЕЙСКОМУ ЯЗЫКУ

METHODS OF MITIGATING THE CULTURE SHOCK PHENOMENON IN KOREAN LANGUAGE TEACHING



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-23-71-75>

Rojiboyev I.G‘.,

*Koreys filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Toshkent, O‘zbekiston, ilhomjonrojiboyev@gmail.com*

Рожибоев И.Г.,

*преподаватель кафедры корейской филологии,
Узбекский государственный университет мировых языков,
Ташкент, Узбекистан, ilhomjonrojiboyev@gmail.com*

Rojiboyev I.G‘.,

*Lecturer at the Department of Korean Philology,
Uzbekistan State World Languages University,
Tashkent, Uzbekistan, ilhomjonrojiboyev@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonida talabalarda yuzaga keladigan madaniy shok fenomenining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi madaniy to‘siqlarni bartaraf etish va talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini oshirish uchun samarali metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Maqolada madaniy shok bosqichlari, koreys jamiyatining ijtimoiy iyerarxik tuzilishi va til o‘rgatishda lingvomadaniyatshunoslikning roli tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты феномена культурного шока, возникающего у студентов в процессе изучения корейского языка как иностранного. Целью исследования является разработка эффективных методических рекомендаций для преодоления культурных барьеров и повышения межкультурной компетенции студентов. В статье анализируются этапы культурного шока, социально-иерархическая структура корейского общества и роль лингвокультурологии в обучении языку.

Abstract: This article explores the theoretical and practical aspects of the culture shock phenomenon that occurs among students in the process of teaching Korean as a foreign language. The purpose of the research is to develop effective

methodical recommendations for overcoming cultural barriers and enhancing students' intercultural competence. The article analyzes the stages of culture shock, the social hierarchical structure of Korean society, and the role of linguaculturology in language teaching.

Kalit soʻzlar: *madaniy shok; koreys tili; lingvomadaniyatshunoslik; madaniyatlararo muloqot; ijtimoiy iyerarxiya; adaptatsiya; metodika.*

Ключевые слова: *культурный шок; корейский язык; лингвокультурология; межкультурная коммуникация; социальная иерархия; адаптация; методика.*

Keywords: *culture shock; Korean language; linguaculturology; intercultural communication; social hierarchy; adaptation; methodology.*

Kirish

Koreys toʻlqini (Hallyu) shiddati bilan bir qatorda butun dunyoda Koreyaga boʻlgan qiziqish ortib bormoqda. Koreys toʻlqiniga boʻlgan qiziqish ortishi natijasida Koreya universitetlariga oʻqishga kirayotgan chet ellik talabalar ulushi ham muttasil oʻsib bormoqda. Chet elliklarning Koreyaga kelishi boshlangan dastlabki davrlarda Xitoy va Vetnam kabi Shimoli-Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalaridan kelganlar asosiy qismni tashkil etgan boʻlsa, soʻnggi paytlarda Markaziy Osiyo, Yevropa yoki AQSh kabi turli mamlakatlardan kelgan chet elliklarning mamlakatimiz universitetlariga oʻqishga kirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ushbu oʻzgarishlar fonida Markaziy Osiyo davlatlaridan biri boʻlgan Oʻzbekistondan kelgan talabalar ulushi sezilarli darajada ortib borayotgani eʼtiborga loyiqdir. Oʻzbekistonlik talabalar oqimi Xitoy va Vetnamdan keyin uchinchi eng yuqori koʻrsatkichni egallab turibdi. Oʻzbekistonlik talabalar sonining bunday keskin ortishiga, eng avvalo, Oʻzbekistonning ichki islohotlar va ochiqlik siyosati sabab boʻlmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni oʻrganish shunchaki lisoniy birliklarni oʻzlashtirish emas, balki oʻrganilayotgan til sohiblarining dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga kirib borish demakdir. Koreys tili va madaniyati Oʻzbekistonda keng ommalashayotgan boʻlsa-da, til oʻrganuvchilar muloqot jarayonida “madaniy shok” deb ataluvchi psixologik va ijtimoiy holatga tez-tez duch kelmoqdalar. Madaniy shok fenomeni til oʻrganuvchining motivatsiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatishi va muloqotda tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Oʻzbekistonlik talabalar oqimining mamlakatga (Koreyaga) koʻpayishi Koreya jamiyati nuqtai nazaridan juda quvonarli va ragʻbatlantiruvchi holatdir. Biroq, mahalliy universitetlar yoki Koreya jamiyati ularni qabul qilishga qay darajada tayyor, ularni qay darajada tushunmoqda, degan masalalarni oʻylab koʻrish kerak. Oʻzbekistonlik talabalar oʻqishning boshida “Koreya orzusi” (Korean Dream) bilan katta umidlar ogʻushida Koreya jamiyatiga qadam qoʻyishsa-da, turli sabablarga koʻra Koreya jamiyatiga moslasha olmayotganliklari yoki oʻqishning

o‘zini ham chala tashlab ketayotgan holatlar uchrayotgani bu borada chuqur mulohaza yuritish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu fenomenning oldini olish va uni yumshatish koreys tili o‘qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Maqolada mazkur muammoni hal etishning pedagogik va metodik mexanizmlari yoritiladi.

Madaniy shokning nazariy asoslari

Madaniy shok termini ilk bor 1954-yilda Kalervo Oberg tomonidan fanga kiritilgan. U yangi madaniy muhitga tushgan insonning his-tuyg‘ulari, hayratdan boshlab tushkunlikka qadar bo‘lgan jarayonni tavsiflaydi. Koreys tili o‘quvchilari uchun bu holat ko‘pincha koreys jamiyatidagi o‘ta yuqori darajadagi hurmat shakllari (“높임말”) va jamoaviylik (“우리”) tushunchalari bilan to‘qnash kelganda yuz beradi.

Koreys madaniyati yuqori kontekstli (high-context culture) madaniyatlari sirasiga kiradi. Bu degani, muloqotda so‘zlardan ko‘ra vaziyat, yuz ifodasi va “눈치” (vaziyatni his qilish qobiliyati) muhimroq rol o‘ynaydi. Talaba faqat darslikdagi jummalarni o‘rgangan bo‘lsa, real hayotdagi bu nozik jihatlarni tushunmaslik natijasida stressga tushadi.

Madaniy shok 2 xil omil asosida yuzaga chiqishi mumkin. Bular tashqi madaniy to‘qnashuv omillari va ichki madaniy to‘qnashuv omillaridir.

Birinchidan, tashqi madaniy to‘qnashuv omillari sifatida ichimlik, taomlanish va kiyinish madaniyatini ko‘rsatish mumkin.

Ichimlik va taomlanish madaniyati: O‘zbekistonlik yoshlar o‘zaro muloqotlarda Koreya jamiyatida spirtli ichimliklar iste‘moli va unga bo‘lgan munosabat oilaviy hamda ijtimoiy hayotda ancha keng o‘rin egallashini alohida qayd etishgan. Shuningdek, Koreya oshxonasida cho‘chqa go‘shidan tayyorlangan taomlarning yetakchi o‘rinda turishi o‘zbek yoshlarining kundalik turmush tarziga moslashishini qiyinlashtiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda (Heo Min, Heo Chang-su). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy va an‘anaviy qarashlari sababli o‘zbek talabalari jamoaviy yig‘ilish va kechki ovqatlanish tadbirlarida (회식) taom tanlash borasida muayyan noqulayliklarga duch kelishadi va bu kabi davralardan chekinishga harakat qilishadi.

Kiyinish va tashqi ko‘rinish madaniyati: Navbatdagi farqli jihat tashqi ko‘rinishga beriladigan e‘tibor bilan bog‘liq. Koreya jamiyatida jinsidan qat‘i nazar, modaga va tashqi qiyofaga o‘ta yuqori darajada ahamiyat berilishi o‘zbek talabalarida o‘zgacha taassurot uyg‘otgan. Xususan, yigitlarning pardoz vositalaridan foydalanishi va o‘ziga haddan ziyod oro berishi o‘zbek yoshlarining tasavvurlari va qadriyatlariga biroz begona tuyulgan. An‘anaviy o‘zbek jamiyatida erkaklarga xos fazilatlar va jiddiylilik mezonini ustun turishi sababli, bunday holat talabalar uchun o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik to‘qnashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, ichki madaniy to‘qnashuv yo‘nalishida esa bevosita ma‘naviy qarashlar, ijtimoiy qadriyatlar, odamlarning dunyoqarashi va muomala odoblari tahlil qilindi:

Muomala odobi va kattalarga hurmat: O‘zbek talabalari Koreya jamiyatida yoshlar va kattalar o‘rtasidagi munosabatlarda muayyan erkinliklar borligini, bu esa ba‘zan yosh avlod vakillari tomonidan yoshi ulug‘ insonlarga nisbatan masofa saqlamaslik (hurmatesizlik) sifatida qabul qilinishini ta’kidlashgan. Ko‘plab yoshlar Koreyaga kelishdan avval media mahsulotlari orqali bu o‘lka madaniyatini O‘zbekiston hayot tarzi bilan juda o‘xshash deb tasavvur qilishgan, biroq real hayotda ushbu tasavvurlarning qisman farq qilishiga duch kelishgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda oilada va jamiyatda kattalarning o‘rni hamda ularning so‘zi yoshlar uchun hamon yuksak qadriyat hisoblanadi. Koreya jamiyatining globallashuv va individuallashuv jarayonlari ta’sirida an’anaviy yosh-uqari munosabatlaridagi qat’iy odob normalarining biroz yumshashi o‘zbek yoshlarida dastlabki ruhiy tushkunlikni keltirib chiqargan.

Oilaviy va ijtimoiy qadriyatlar (ayollar maqomi): Navbatdagi farqli jihat jamiyatda va oilada xotin-qizlarning tutgan o‘rni bilan bog‘liq. O‘zbek talabalarining qarashlarida Koreyada ayollarning ijtimoiy faolligi, qaror qabul qilish jarayonlaridagi mustaqilligi va kasbiy salohiyatini namoyon etish imkoniyatlari yuqori baholangan. Respondentlarning shaxsiy va ijtimoiy tajribalariga ko‘ra, an’anaviy o‘zbek oilaviy modelida turmush qurgandan so‘ng ayol kishining asosiy faoliyati ko‘proq ro‘zg‘or va farzand tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi an’ana tusiga kirgan. Koreya jamiyatidagi xotin-qizlarning ijtimoiy maqomi o‘zbek yoshlari, ayniqsa talaba qizlar uchun o‘ziga xos ijtimoiy qiyoslov va fikrlash nuqtasi bo‘lib xizmat qilgan.

Ijtimoiy munosabatlar va mehmondo‘stlik: Mazkur yo‘nalishda talabalar xorijliklarga nisbatan munosabatdagi muayyan ijtimoiy masofani his qilishganini bayon etishgan. O‘zbekistonlik yoshlarning fikricha, koreys xalqiga xos bo‘lgan ichki jamoaviylik falsafasi (kundalik hayotdagi “우리” – “biz” tushunchasi) o‘z muhitiga kirmaydigan yoki xorijdan kelgan shaxslarga nisbatan biroz yopiq va ehtiyotkorona muhitni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa mehmondo‘stlik, ochiqlik va samimiylikka o‘rgangan o‘zbek talabalarida dastlabki moslashuv davrida muayyan begonalashish hissini uyg‘otadi.

Metodologiya va tahlil

Tadqiqot davomida koreys tilini o‘qitishda madaniy kompetensiyani shakllantirishning bir necha bosqichli modeli taklif etiladi. Birinchi navbatda, "Lingvomadaniyatshunoslik" tamoyili asosida dars o‘tish lozim. Bu yondashuvda til birligi va madaniy tushuncha bir vaqtda o‘rgatiladi. Masalan, koreys tilidagi “yosh” so‘zini o‘rgatishda, shunchaki raqamlar emas, balki Koreyadagi ijtimoiy iyerarxiyada yoshning tutgan o‘rni tushuntirilishi shart.

Madaniy shokni kamaytirishning samarali yo‘llaridan biri bu kross-madaniy taqqoslashdir. O‘zbek va koreys madaniyatlari sharqona qadriyatlarga asoslangani sababli ko‘plab o‘xshashliklarga ega. Masalan, oila a’zolariga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat shakllari (aka, opa) har ikki madaniyatda ham muhim. Bu o‘xshashliklarni urg‘ulash talabada yangi tilga nisbatan “begonalik” hissini kamaytiradi.

Madaniy shokni yumshatishda amaliy metodlar

1. Simulyatsion o‘yinlar va Keys-stadi: Darslarda real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish. Masalan, “Koreys kompaniyasida birinchi ish kuni” yoki “Koreyalik keksalar bilan suhbat”. Bunday mashqlar o‘quvchiga xato qilishdan qo‘rqmaslikni va madaniy kutilmalarni o‘rgatadi.

2. Media-resurslardan foydalanish: Zamonaviy koreys dramalari va ko‘rsatuvlari tildagi jonli nutq va madaniy kodlarni o‘rganish uchun boy manbadir. Biroq, ulardan shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki tahliliy material sifatida foydalanish kerak. “Nima uchun qahramon bu yerda ta‘zim qildi?”, “Nima uchun u bu gapni aytmadi?” kabi savollar talabani tanqidiy fikrlashini o‘stiradi.

3. Interaktiv muloqot klublari: Til sohiblari bilan doimiy muloqot o‘rnatish. Bu orqali o‘quvchi kitobiy til va jonli muloqot o‘rtasidagi farqni ko‘radi va moslashuv jarayoni tezlashadi.

Xulosa

Koreys tilini o‘qitishda madaniy shok fenomenini bartaraf etish – bu talabani nafaqat til bilimlarini, balki ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish demakdir. Xulosa qilib aytganda, madaniy elementlar o‘quv dasturining ajralmas qismi bo‘lishi lozim. O‘qituvchi talabaga shunchaki grammatikani emas, balki o‘sha til muhitida “yashash” san‘atini o‘rgatishi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy bilimlar bilan qurollangan talabalar tilni 30% tezroq va samaraliroq o‘zlashtiradilar. Shu bois, kelajakda darsliklarni tuzishda madaniy sharhlarga ko‘proq o‘rin berish va o‘qituvchilarning madaniyatlararo malakasini muntazam oshirib boorish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedova, M. (2020). Lingvomadaniyatshunoslik asoslari. Toshkent, “Fan”.
2. Cho, H. J. (2015). Korean Culture and Language for Foreigners. Seoul National University Press.
3. Hall, E. T. (1976). Beyond Culture. Anchor Books.
4. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters.
5. Oberg, K. (1960). Cultural Shock: Adjustment to New Cultural Environments. Practical Anthropology, 7, 177-182.
6. 이지조바 피루자, 박지인. (2018). 재한 우즈베키스탄 유학생들의 한국 대학생 생활 적응에 관한 연구. 《예술인문사회 융합 멀티미디어 논문지》, 8(4), 517-531-beti.
7. 허민, 허창수. (2017). 인도네시아 무슬림 유학생의 문화충격을 통한 한국의 문화적 특성 이해. 《학습자중심교과교육연구》, 17(7), 25-48-beti.
8. 대한민국 법무부 출입국·외국인정책본부. (2020). 《2020년 4월 출입국·외국인정책 통계월보》. 대한민국 법무부.
9. 부산대학교 문화예술연구소. (2021). 국내 우즈베키스탄 유학생들의 문화충격 요인에 대한 질적 연구. 《문화예술연구》, 15(2), 89-112-beti.